

11. Sager, Juan C. A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 1990. 254 p.
12. Temmerman, Rita. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 2000. 258 p.
13. Widdowson, H. G. Text, Context, Pretext: Critical Issues in Discourse Analysis. Oxford: Blackwell, 2004. 200 p.
14. McArthur, Tom; McArthur, Roshan (eds.). The Concise Oxford Companion to the English Language. Oxford: Oxford University Press, 2005. 692 p. (Your title said “The Oxford Companion... (2005) 692 p.” — in 2005 the 692-page volume is the Concise version.)
15. Sokolova, T. Digital Communication and Terminology Development. Moscow: Linguistics Press, 2018. 215 p.

Habibullayeva Sohibjamol Akmaljon qizi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) FarDU, filologiya fakulteti tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi **To'raqulova Odinoxon Abrorjon qizi** filologiya o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi sohibjamolhabibullayeva84@gmail.com ORCID ID 0009-0006-7019-7816



O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARINING FONOPOETIK TAHLILI

<https://zenodo.org/records/18765949>

Annotatsiya; Ushbu maqolada o'zbek xalq qo'shiqlarining fonopoetik xususiyatlari tahlil qilinib, tovush takrorlari, alliteratsiya va tovush tushishi kabi fonetik hodisalar qo'shiq matnining ohangdorligi, musiqiylik hamda badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirishdagi o'rnini yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek xalq qo'shiqlari, fonopoetika, tovush takrori, alliteratsiya, tovush orttirilishi, ohangdorlik, musiqiylik, badiiy-estetik ta'sir.

PHONOPOETIC ANALYSIS OF UZBEK FOLK SONGS

Abstract: This article analyzes the phonopoetic features of Uzbek folk songs, highlighting the role of phonetic phenomena such as sound repetition, alliteration and sound fall in improving the tonality, musicality and artistic-aesthetic expressiveness of the song's text.

Keywords: Uzbek folk songs, phonopoetics, sound repetition, alliteration, sound gain, tonality, musicality, artistic-aesthetic influence.

ФОНОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН

Аннотация: Статья посвящена анализу фонопоэтических особенностей узбекских народных песен. Раскрывается роль звуковых повторов и фонетических явлений в создании мелодичности и художественной выразительности песенного текста.

Ключевые слова: Узбекские народные песни, фонопоэтика, звуковой повтор, аллитерация, наращение звука (эпентеза), мелодичность, музыкальность, художественно-эстетическое воздействие.

Kirish.

Har bir millat faxrlanadigan tarixiy madaniyati bu xalq og‘zaki ijodidir. O‘zbek xalq qo‘shiqlari xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy tafakkuri, estetik didi va ruhiy kechinmalarini o‘zida mujassam etgan noyob og‘zaki ijod namunalari hisoblanadi. Bu qo‘shiqlar nafaqat mazmuniy-boyligi, balki ohangdorligi, tovush uyg‘unligi va musiqiyliги bilan ham ajralib turadi. Xalq qo‘shiqlarida milliy urf-odatlar, tabiatga munosabat, insoniy tuyg‘ular sodda va samimiy shaklda ifodalanadi. Bu qo‘shiqlar o‘zining soddaligi, tabiiyligi va xalqona ohangi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ularning kuyga mos so‘z tuzilishi, ohangdorligi va esda qolarliligi xalq qo‘shiqlarining muhim belgilaridan biridir. Shu jihatdan o‘zbek xalq qo‘shiqlari nafaqat folklor merosi sifatida, balki badiiy til va estetik tafakkurning yorqin namunasi sifatida ham qimmatli hisoblanadi.

Adabiyotlar tahili va metodologiya.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarini faqat badiiy-adabiy hodisa sifatida talqin qilish bilan cheklanib qolmasdan, ularni lingvistik jihatdan ham chuqur tahlil etish bugungi filologiya fanlarining dolzarb masalalaridan biridir. Chunki xalq qo‘shiqlari milliy tafakkur, madaniy xotira va tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘zida mujassam etgan noyob og‘zaki manbalardan hisoblanadi. Ushbu qo‘shiqlarda xalq tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari tabiiy va jonli shaklda namoyon bo‘lib, ularni lingvistik tahlil qilish orqali til birliklarining badiiy vazifasi, semantik yuklamasi hamda ekspressiv imkoniyatlarini aniqlash mumkin. Shu bois o‘zbek xalq qo‘shiqlarini lingvopoetik yondashuv asosida o‘rganish ularning mazmun-mohiyatini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishda bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, xususan, M. Yaqubbekovanning tadqiqotlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari tilining lingvistik xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. M.Yaqubbekova xalq qo‘shiqlarining leksopoetik xususiyatlarini o‘rganish borasida mulohazalar yuritgan.[1] Tadqiqotda o‘xshatish, metonimiya va sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarining mantiqiy-semantik va lisoniy poetik xususiyatlari o‘rganilgan. Ularning qo‘shiq badiiyatiga ta’siri ta’kidlab ko‘rsatilgan.

Lingvopoetika fanining muhim va yetakchi tarmoqlaridan biri fonopoetika hisoblanadi. Fonopoetika badiiy matnda tovush birliklarining estetik va ifodaviy imkoniyatlarini, ularning ma’no va hissiy-ta’sir kuchini yuzaga chiqarishdagi rolini tadqiq etadi. Ayniqsa, badiiy matndagi tovushlar uyg‘unligi, takrorlar, alliteratsiya va assonans kabi fonetik hodisalar badiiy mazmunni kuchaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda fonopoetikaning nazariy va amaliy masalalari atroflicha yoritilgan. Xususan, S.Habibullayevaning “Isajon Sulton hikoyalarning lingvopoetik tadqiqi”[2] nomli dissertatsiyasida yozuvchi hikoyalardagi fonopoetik tomonlarini ya’ni eng kichik sath birliklaridan tortib, tinish belgilarigacha lingvopoetik tahlilga tortadi.

R.Jo'rayevaning "Muqimiy asarlarida aruz vaznining fonopoetik imkoniyatlari"[3] ilmiy maqolasida aruz vaznini o'zbek tiliga moslashtirish uchun qo'llaniladigan turli fonetik o'zgarishlar haqida aytib o'tilgan. Xalq qo'shiqlarining ta'sirchanligi ko'p jihatdan undagi fonetik vositalarning badiiy qo'llanishi, ya'ni fonopoetik xususiyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Fonopoetika badiiy matnda tovushlarning estetik vazifasini, ularning ma'no va hissiy ta'sir kuchini yuzaga chiqarishdagi rolini o'rganadi. O'zbek xalq qo'shiqlarida alliteratsiya, assonans, takroriy tovushlar, ohangdosh bo'g'inlar orqali ritm va musiqiylik yaratiladi hamda qo'shiq mazmuni yanada jonli va ta'sirchan ifodalanadi. Shu bois xalq qo'shiqlarini fonopoetik jihatdan tahlil qilish ularning badiiy tabiati, milliy ruhini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada o'zbek xalq qo'shiqlarining fonopoetik xususiyatlari misollar asosida tahlil qilinib, tovush va ma'no uyg'unligining badiiy-estetik ahamiyati yoritiladi.

"Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetikaning tadqiqot obyekti sifatida hissiy-ta'siriylik yuqori bo'lgan, obrazlilik o'ziga xos lingvistik va ekstralingvistik vositalar yordamida hosil qilinadigan, alohida poetik-intonatsion vositalar tizimiga ega bo'lgan nutq turi belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Bu nutq, asosan, she'riy tuzilishga ega bo'lgan asarlarda o'z aksini topadi".[1] Tilshunos M.Abdupattoyev aytganidek, lingvopoetik tadqiqotni asosan she'riy matnlar ustida yoritib borish ancha qulay. Fonopoetika alohida yo'nalish sifatida tekshirilar ekan, demak, undagi o'ziga xos spetsifik xususiyatlarni o'rganib dolzarb hisoblanadi.

Natija va muhokama.

Fonopoetikaning spetsifik xususiyatlariga poetik matndagi musiqiylik, ohang, ovoz tembr, ritmik intonatsiya, emotsionallik darajalarini ko'rsatishimiz mumkin. O'zbek xalq qo'shiqlaridagi turli-tuman ohangdosh so'zlarni, ritorik so'roqlarni, alliteratsiya hodisalarini, harflarni cho'zib talaffuz qilinishlarini fonopoetik tahlilda ko'rib chiqamiz.

Fonopoetik tahlil badiiy matnda tovush birliklarining estetik va ifodaviy imkoniyatlarini, ularning ma'no va hissiy-ta'sir kuchini yuzaga chiqarishdagi rolini tadqiq etadi. Ayniqsa, og'zaki xalq ijodi namunalari, jumladan, xalq qo'shiqlarida tovushlar uyg'unligi, takrorlar, alliteratsiya va assonans kabi fonetik hodisalar badiiy mazmuni kuchaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalq qo'shiqlarida tovush orttirilishi hodisasi bilan bog'liq holatlarni ham kuzatish mumkin:

Farg'onaning qizlari-ey, omon yor,
Shahlo ekan ko'zlari-ey, omon yor.
Nozlanib o'ynaganda-ey, omon yor,
Ohu kabi o'zlari-ey, omon yor. [6]

Ushbu qo'shiqning matnidagi qizlari-ey, ko'zlari-ey, o'ynaganda-ey, o'zlari-ey, so'zlaridagi (i-e) hamda (a-e) unlilari o'rtasida nutqda y undoshining ortishi kuzatilyapti. Y undoshi ortishi natijasida e unlisining nutqdagi cho'zilishi ham hosil bolmoqda. Qo'shiqdagi "ey" undovi qo'shiqning ohangdorlik va ritmiklik xususiyatini oshirmoqda. Qo'shiq matnining ohangdorligini ta'minlash, ritm va musiqiylikni kuchaytirish hamda ijro jarayonini qulaylashtirish maqsadida ayrim tovushlar qo'shimcha tarzda qo'llanadi. Tovush orttirilishi natijasida so'zning tabiiy talaffuzi kuyga moslashadi, satrlar o'rtasida tovush uyg'unligi yuzaga keladi va qo'shiqning esda qolarliliigi ortadi. Bu hodisa xalq qo'shiqlarida badiiy ifoda vositasi sifatida xizmat qilib, matnning hissiy-ta'sirchanligini kuchaytiradi hamda xalqona ohangning yanada ravon va jozibador bo'lishiga yordam beradi.

Ko'pincha og'zaki nutqda bir xil tovushlarning yoki o'xshash undoshlarning birin-ketin kelishi natijasida so'z oxiridagi tovush tushirib talaffuz qilinadi. Og'zaki nutqda so'z oxiridagi tovush tushirib qoldirilsa-da, yozuvda, albatta, yoziladi. O'zbek xalq qo'shiqlari

ma'lum bir barmoq vaznida vujudga keladi. Bo'g'in sonlarini muvofiqlashtirish uchun qo'shiqdagi tovushlar tushirilib talaffuz qilinadi.

Mast bo'lamiz, lolacha,

Rost bo'lamiz, lolacha.

Erta turib, salom deb,

Do'st bo'lamiz, lolacha [5]

Ushbu qo'shiqda "mast, rost, do'st" so'zlarida ikki undosh tovushning ketma-ket kelganligi uchun oxirgi tovushning talaffuzda tushirilishini ko'rishimiz mumkin. Bu so'zlardagi tovush tushirilishi qo'shiq ohangdorligiga hech qanday ta'sir qilmaydi. Aksincha, kuyni yana ravon va oson kuylanishiga yordam beradi. Oxirgi tovushning tushib qolishi qo'shiqlardagi xalqona talaffuzni ko'rsatadi. Bu esa folklorning tabiiy ta'sirchanligini oshiradi.

O'zbek folkloridagi eng yorqin namunalardan biri bolgan "Yallama yorim" qo'shig'ida uchraydigan fonopoetik hodisa bu alliteratsiyalardir. Alliteratsiya – undosh tovushlar takrori asosida yuzaga keladigan badiiy usul

Yallama yorim, yallola,

Yallola-shaylik, yallola-shaylik

Uchtami-to'rtta bo'lolib,

Hasratlashaylik.[6]

"Yallama yorim yallola" misrasida y undosh tovushining ketma-ket va muntazam takrorlanishi natijasida alliteratsiya hodisasi yuzaga keladi. Ushbu tovush takrori misraning fonetik tuzilishida o'ziga xos ohangdorlik va ritmik uyg'unlikni hosil qilib, qo'shiq matnining eshitilish jarayonida musiqiy ta'sirini kuchaytiradi. Ayniqsa, kuy ijrosi davomida so'zlardagi unli va undosh tovushlarning cho'zib aytilishi tovush oqimini yanada ravonlashtiradi, natijada qo'shiqning umumiy musiqiy ohangi boyiydi. Bu holat matn va kuy o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlab, xalq qo'shig'ining estetik ta'sirchanligini oshiradi hamda alliteratsiyaning fonopoetik vazifasini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq qo'shiqlari badiiy tilining muhim jihatlaridan biri ularning fonopoetik xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Xalq qo'shiqlari matnida tovush takrorlari, tovush orttirilishi, alliteratsiya va assonans kabi fonetik hodisalar qo'shiqning ohangdorligi va musiqiylikini ta'minlashda muhim estetik vazifani bajaradi. Ushbu fonopoetik vositalar orqali qo'shiq mazmunining hissiy-ta'sirchanligi kuchayadi, matn va kuy o'rtasidagi uyg'unlik yanada mustahkamlanadi. Natijada xalq qo'shiqlari nafaqat folklor merosi sifatida, balki badiiy-estetik tafakkurning mukammal namunasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq qo'shiqlarini fonopoetik jihatdan o'rganish ularning poetik tabiati, milliy ruhini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda folklorshunoslik va tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдупаттoев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. – Фарғона, 2021.
2. Habibullayeva S. Isajon Sulton hikoyalarining lingvopoetik tadqiqi. filol fan bo'yicha falsafa dok... diss (PhD). – Farg'ona, 2024.
3. Jo'rayeva R. "Muqimiy asarlarida aruz vaznining fonopoetik imkoniyatlari" maqolasi "World of Philology" Scientific Journal 4-jild, 3-son, 2025-yil oktyabr.
4. Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари док. дисс. – Тошкент, 2005.
5. <https://uforum.uz/showthread.php?t=14084&page=4>
6. <https://uz.lyricsus.com/yalla-guruhi/omon-yor/>